XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	



BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Iqtisodiyot va moliya kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD)

Email: lbr1980@mail.ru

ORCID: 0008-0009-6518-8710

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarni guruhlash, ularning tarkibi, muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar hamda ularni yuzaga kelish sabablari tahlil asosida o'rganilgan. Shuningdek, unda hozirgi kunda tijorat banklarida kuzatilayotgan kreditlash jarayonidagi muammoli kreditlarga olib keluvchi belgilar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: bank aktivlari, muammoli aktivlar, kredit, kredit siyosati, muammoli kreditlar, kredit riski, kredit portfeli, shubhali kreditlar, umidsiz kreditlar.

Abstract. Based on their analysis, the article examines the grouping of problem loans of commercial banks and their composition, internal and external factors influencing the occurrence of problem loans, as well as the reasons for their occurrence. The article also highlights the signs that lead to problem loans in the lending process currently observed in commercial banks.

Key words: bank assets, problem assets, credit, credit policy, problem loans, credit risk, loan portfolio, doubtful loans, bad loans.

Аннотация. В статье на основе их анализа рассматриваются группировка проблемных кредитов коммерческих банков и их состав, внутренние и внешние факторы, влияющие на возникновение проблемных кредитов, а также причины их возникновения. Также в статье выделены признаки, которые приводят к проблемным кредитам в процессе кредитования, наблюдаемым в настоящее время в коммерческих банках.

Ключевые слова: активы банка, проблемные активы, кредит, кредитная политика, проблемные кредиты, кредитный риск, кредитный портфель, сомнительные кредиты, безнадёжные кредиты.

KIRISH

Tijorat banklari jalb qilingan mablag'lardan, odatda, kredit berish shaklida foydalanadilar. Bunda nafaqat daromad olish, balki mablag'larni kredit oluvchidan to'liq undirish imkoniyatini oldindan aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Chunki "bank sarmoya egasi sifatida sarmoyani emas, balki sarmoyadan foydalanish huquqini ma'lum shartlar va ustama foizlar asosida sotadi" [4].

Ayni paytda mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliy doiralarda "muammoli aktiv" tushunchasi avvalgiga nisbatan ko'proq qo'llanilmoqda va muhokama etilmoqda. Bu hol bejiz emas, chunki respublikamiz bank tizimining kredit portfelida muammoli aktivlarning ulushi rivojlangan davlatlar bank tizimlaridagiga nisbatan yuqoriroq foizni tashkil etadi.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammosiga duch kelmoqda. Shu bois banklarning muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish masalalari



tobora dolzarb tus olmoqda. Bu jarayonda nafaqat kreditor, balki kreditni o'z vaqtida qaytara olmayotgan qarzdor ham murakkab vaziyatga tushib qoladi. Shu sababli "bunday sharoitda har ikki tomon qanday yo'l tutishi lozim?" degan savol bugun bank amaliyotida muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, shubhali va umidsiz qarzlarning sifat jihatidan bank tizimi barqarorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, muammoli aktivlar hajmining oshishi bank tizimini tashkil etuvchi yirik moliya institutlarining barqarorligiga, to'lov tizimining uzluksiz ishlashiga va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda muammoli aktivlarga bir qancha ta'riflar keltirilgan. Ayrim adabiyotlarda tijorat banklari faoliyatida xavfli bo'lgan kredit qo'yilmalar muammoli aktivlar shakliga kiruvchi qo'yilmalar sifatida izohlangan bo'lsa, boshqa adabiyotlarda muammoli aktivlar deganda obyekt, subyekt va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kreditlar tushuniladi.

Bank menejmenti sohasida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borgan amerikalik mutaxassis olim Piter Rouzning fikricha, qarz oluvchi bir yoki bir necha to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o'tishini anglatadi [7].

Rossiya adabiyotlarida ayrim mualliflar muammoli aktivni obyekt, subyekt va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit sifatida talqin etadi [6]. Ularning fikricha, muddati o'tmagan joriy kreditlardan tashqari barcha kreditlar, shu jumladan asosiy to'lov hamda kredit foizlari bo'yicha qisqa muddatli qarzdorlikka ega bo'lgan kreditlar muammoli hisoblanadi. Biroq ushbu fikrlarning yakuniy qismi to'liq to'g'ri deb bo'lmaydi.

Holbuki, muddati o'tgan kreditni asl ma'noda muammoli aktiv sifatida baholash mumkin emas, chunki kredit bo'yicha ilk to'lovlarning qisqa muddatga cho'zilishi uning umuman qaytmaslik xavfini anglatmaydi. Shu bilan birga, kreditni so'ndirish bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi ham uning ishonchli ekanligini to'liq kafolatlamaydi. Ya'ni, ayni paytda o'z vaqtida qaytarilayotgan kredit kelgusida ishonchsiz kreditlar safiga o'tib qolishi ehtimoldan holi emas.

Shuningdek, kreditlash tamoyillarining buzilishi bank uchun kreditlash jarayonini tashkil etish vaqtida hal qilinishi lozim bo'lgan jiddiy muammo hisoblanadi. Mazkur tamoyillar kredit shartnomasida to'liq aks etganligi sababli, muammoli aktivlarga ta'rif berishda "kredit shartnomasi shartlarining buzilishi" iborasining qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda "substandart", "shubhali" hamda "umidsiz" sifatida tasniflangan kreditlar muammoli aktivlar toifasiga kiradi [3].

Dudinets muammoli bank aktivlarini ularning qaytarilishiga shubha tug'diruvchi yoki ularni joylashtirish va ishlatishdan iqtisodiy foyda olish ehtimoli past bo'lgan aktivlar sifatida ko'rsatadi [5]. Xalqaro Bazel qo'mitasining me'yoriy hujjatlarida banklarning muammoli aktivlari quyidagicha ta'riflanadi: "Bank oldidagi majburiyatlarni bajarish muddati sezilarli darajada yomonlashgan, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yoki sifati keskin yomonlashgan yoki garov ta'minoti yo'qolgan kredit mahsuloti".

Yana bir milliy tadqiqotchining fikricha, muammoli kreditlar — bu kredit risklarining amalda yaqqol namoyon bo'lishi natijasida obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra kredit shartnomasi shartlarining buzilishi oqibatida "substandart", "shubhali" hamda "umidsiz" kreditlar toifasiga o'tgan kreditlardir [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoli aktivlarning yuzaga kelish sabablari hamda ularga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish jarayonida banklarda muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari aniqlangan. Tadqiqotda umumiy iqtisodiy yondashuvlar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, statistik va abstrakt-mantiqiy usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida kreditlash jarayoni, odatda, bank kredit siyosatini ishlab chiqishdan boshlanadi. Kredit siyosati — bu kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklarni boshqarish maqsadida bank rahbariyati tomonidan belgilangan chora-tadbirlar va uslublar tizimidir. U bank rahbariyati va xodimlarini kredit portfelini samarali boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hamda kredit resurslarini joylashtirishda qaror qabul qilish imkonini beruvchi qoidalar majmuasini o'z ichiga oladi.

Kredit siyosatida muammoli aktivlar bilan bog'liq holatlarni aniqlash va tahlil qilish, ularni bartaraf etish mexanizmlari Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida aniq belgilangan bo'lib, bu yo'nalishda bank amaliyotini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Kredit siyosatida muammoli kreditlarning oldini olish



choralari yanada tizimli yondashuv asosida kengaytirilsa, kredit portfelining sifati va barqarorligi yanada oshadi. Aslida, muammoli aktivlarning belgilari kreditlash jarayonining ilk bosqichlaridayoq aniqlanib, ularning profilaktik nazorati yo'lga qo'yilsa, risklar sezilarli darajada kamayadi. Xalq orasida aytilganidek, "kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olgan ma'qul" degan tamoyil bu jarayonda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda banklar tomonidan mijozlarni kreditlash jarayoni iqtisodiy faollikni oshirish va biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Korxonalar biznes-rejalarining yanada puxta ishlab chiqilishi, faoliyatning maqsadga muvofiq tashkil etilishi, shuningdek, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning mustahkamlanishi kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlaydi. Shuningdek, muammoli aktivlar yuzaga kelishining oldini olish uchun ichki va tashqi omillarni doimiy monitoring qilish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Kredit mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni oshirish, shartnomalarda belgilangan maqsadlarga qat'iy rioya etish, qarz oluvchining moliyaviy holatini muntazam tahlil qilib borish va kredit monitoringini kuchaytirish orqali risklar darajasi pasayadi. Shu bilan birga, kredit nazoratining doimiy va tizimli olib borilishi asosiy qarz va foiz to'lovlarining uzluksiz bajarilishini ta'minlaydi.

Muammoli aktivlarning oldini olishda eng muhim yo'nalishlardan biri kreditlash jarayonining ilk bosqichlaridanoq monitoringni samarali tashkil etishdir. Qarzdorning buxgalteriya hisobotlarini tahlil qilish, joyida tekshiruvlar o'tkazish va real moliyaviy holatni baholash orqali kreditlardan foydalanish samaradorligini har chorakda baholab borish tavsiya etiladi. Bunday tizim kredit siyosatining puxta ishlab chiqilganligini va amaliy natijadorlikka yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Kredit portfeli sifatini yaxshilash, foiz to'lovlari bo'yicha intizomni kuchaytirish va monitoring mexanizmlarini zamonaviy axborot tizimlari bilan uyg'unlashtirish orqali kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash mumkin. Kelgusida kredit siyosatini raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt asosidagi tahlil tizimlari va risklarni erta ogohlantirish mexanizmlari bilan boyitish banklarning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlaydi va mijozlarning kreditorlik yukini kamaytiradi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, banklarda muammoli kreditlarning yuzaga kelishida ichki omillar 67 foizgacha yo'qotishlarga sabab bo'ladi, tashqi omillar esa 33 foizni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval. Muammoli kreditlarni kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar

T/r	Ta'sir etuvchi omillar	Darajasi %
	Ichki omillar	67%
1	Ta'minot yetishmasligi	22%
2	Ssuda buyurtmasini o'rganishda axborotni noto'g'ri baholash	21%
3	Operatsiya nazoratining zaifligi hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlanmaslik va ular yuzasidan tegishli choralar ko'rmaslik	18%
4	Garov ta'minoti sifatining pastligi	5%
5	Shartnomada ko'rsatilgan ta'minotni olish imkoniyati yo'qligi	1%
	Tashqi omillar	33%
6	Kompaniyaning bankrot bo'lishi	12%
7	Kreditorlarning qarzlarini qaytarishni talab qilishi	11%
8	Kompaniya'ning bozorda o'z o'rnini yo'qotishi va ichki ijtimoiy muammolar	6%
9	Firibg'lik	4%

Kreditlash jarayonining ilk bosqichlarida bank tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar natijasida muammoli ssudalar paydo bo'ladi. Bunday kamchiliklarga loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini yetarli darajada tahlil qilmaslik, mijozning moliyaviy holatini to'g'ri baholamaslik, kreditni chuqur iqtisodiy tahlil asosida emas, balki subyektiv yondashuvlar asosida berish, korxonaning tarmoq xususiyatlarini hamda haqiqiy ehtiyojlarini yuzaki baholash oqibatida kredit risklilik darajasini noto'g'ri hisoblash kiradi. Shuningdek, qarzdorning kredit mablag'laridan foydalanishi ustidan monitoringning sust olib borilishi, qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashganda yoki pul oqimlarida salbiy o'zgarishlar kuzatilganda kreditni restrukturizatsiyalash va statusini o'zgartirish bo'yicha chora ko'rmaslik holatlari ham bunga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, hujjatlarning to'liq talab qilinmasligi, kredit mablag'ining biznes-rejada ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatilmasligi yoki mablag'ning yashirin o'zlashtirilishi, kredit ta'minoti sifatida taklif etilgan garovning talabga javob bermasligi yoki uni haddan tashqari yuqori baholash oqibatida kredit ta'minotining yetarli bo'lmasligi, bank xodimlarining mas'uliyatsizligi hamda kredit shartnomasida bank manfaatlarini himoya qiluvchi bandlarning yetarli darajada belgilab qo'yilmaganligi kabi omillar muammoli ssudalar yuzaga kelishiga



sabab bo'ladi. Shuningdek, kreditdan foydalanish davrida qarzdorning faoliyati ustidan nazoratning sust olib borilishi ham muammoli kreditlar paydo bo'lishining asosiy omillaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi va shunga o'xshash holatlar kreditlash jarayonining buzilishiga olib keladi va natijada qarzdor bilan bir qatorda kreditor bankning ham moliyaviy barqarorligiga zarar yetkazadi. Bunday oqibatlar darhol namoyon bo'lmaydi, balki asta-sekin kapital aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Ular qarzdor-mijozning moliyaviy holati, ishlab chiqarish faoliyati hamda kreditlash jarayonidagi muvozanat buzilishi orqali namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida muammoli kreditlarning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Banklar mijozlarning kredit siyosati va kreditlash tamoyillariga rioya etilishini qat'iy nazorat qilishi, kreditlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholashi hamda tahlil qilishi zarur. Kredit arizasini ko'rib chiqish jarayonida mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligi va haqqoniyligini tekshirish, mijozning moliyaviy ahvoli, biznes hamkorlari orasidagi obro'si va sohadagi tajribasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Korxonaning mol-mulkini baholashda bankning o'zi ham mustaqil elektron baholash tizimlaridan foydalangan holda garov ta'minotining haqiqiy qiymatini aniqlashi va uni doimiy ravishda monitoring qilib borishi zarur. Kredit ajratilganidan so'ng, mijozning biznes-rejasi bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini, mablag'lar aylanmasini va to'lov intizomini muntazam nazorat qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Muammoli kreditlarni boshqarishning zamonaviy usullarini shakllantirish va ularni doimiy ravishda amaliyotda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bank aktivlari sifati ustidan uzluksiz monitoring olib borish, muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini kuchaytirish, aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali tavakkalchiliklarni kamaytirish lozim.

Bank tizimida kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini samarali tashkil etish orqali kreditlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini muntazam nazorat qilish zarur. Bundan tashqari, kreditlar obyektiv hamda subyektiv sabablarga ko'ra kredit shartnomasi shartlarining buzilishi oqibatida "substandart", "shubhali" va "umidsiz" toifalarga o'tgan hollarda, kreditni undirish bilan bog'liq vakolatlarining bir qismini tijorat banklariga berish mexanizmini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, banklarning kredit bo'limi xodimlari muammoli aktivlarning belgilarini aniqlagandan so'ng, ularni bartaraf etishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqishlari va amaliyotda qo'llashlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – T.: PF-5992-son, 2020-yil 12-may. – <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Togaev S., Utkirov A. The impact of human resources on improving the quality of financial services // Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023.
3. Yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasi. – 2696-son. – 2015-yil 14-iyul. – <https://lex.uz/docs/-2703053>
4. Дробозина Л.А. Финансы, денежное обращение, кредит. – Москва: ЮНИТИ, 2000.
5. Дудинец Л.А. Теоретические подходы к определению сущности проблемных активов банка. // Экономика и банки. – 2015.
6. Лаврушина О.И. Управление деятельностью коммерческого банка (банковский менеджмент). – Москва, 2002.
7. Роуз П. Банковский менеджмент. – Пер. с англ. – Москва, 1997.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>